



## METALLARGA MEXANIK ISHLOV BERISHDA TECHNOLOGIK JARAYONLAR VA ULARNI O'QITISHDA INNOVATION TECHNOLOGYALAR

**Yusupova Karimaxon G`ofurjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti Texnologik talim Yo`nalishi 2-kurs magistri*

**Yigitaliyeva Matlubaxon Baxtiyor qizi**

*Farg'ona davlat universiteti Texnologik talim Yo`nalishi 2-kurs magistri*

**Ilmiy Rahbar: J. G`ofurov**

*texnika fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zamonaviy metallga ishlov berish jarayonlari, har xil va ixtisoslashgan bo'lsa ham, shakllantirish, kesish yoki qo'shilish jarayonlari deb tasniflanishi haqida, Metallarni ishlash-metallar va qotishmalarga issiqlik (termik), mexanik, kimyoviy ishlov berishda bajariladigan ishlar haqida so'z boradi.

**Kalit so`zlar:** metall, jarayon, ishlov berish, kashfiyat, ruda, rivojlanish, dastgoh, rivojlanirish, issiqlik, vosita.

Metallga ishlov berish - bu fan, san'at, sevimli mashg'ulot, sanoat va savdo. Uning tarixiy ildizlari madaniyatlar, sivilizatsiyalar va ming yilliklarni qamrab oladi. Metallga ishlov berish kashfiyotdan rivojlandi eritish turli xil rudalar, ishlab chiqarish egiluvchan va egiluvchan metall foydali vositalar va bezaklar. Zamonaviy metallga ishlov berish jarayonlari, har xil va ixtisoslashgan bo'lsa ham, shakllantirish, kesish yoki qo'shilish jarayonlari deb tasniflanishi mumkin. Bugungi mexanika sexi qatorini o'z ichiga oladi dastgoh asboblari aniq, foydali ish qismini yaratishga qodir

Metallarni ishlash-metallar va qotishmalarga issiqlik (termik), mexanik, kimyoviy ishlov berishda bajariladigan ishlar majmui. Metallarni termik ishlash — metall va qotishmalarning xossalarni (ichki tuzilishini) o'zgartirish uchun qo'llaniladigan amallar: yumshatish, toplash, normallash, bo'shatish, yaxshilash, chiniqtirish, kimyoviytermik ishslash, tassivlash.

Yumshatish — metallarni ma'lum temperaturagacha qizdirib, shu temperaturada ma'lum vaqt tutib turgach, asta-sekin, ba'zan, pech bilan birga sovitish; bunda metallarning xossalari o'zgaradi. Natijada metallarning bol-g'alanuvchanligi va plastikligi oshadi, magnitlanish va boshqa xususiyatlari yaxshilanadi.

Toblash — metallarni ma'lum temperaturagacha qizdirib, tez sovitish; bunda metallarning bir xil bo'lмаган struktura holatlari mustahkamlanadi, metallarning xususiyati turlicha o'zgaradi.

Normallash — kam (0,3% gacha) va o'rtacha (0,3—0,6%) uglerodli po'latni, taxminan, 800—950° gacha qizdirib, havoda sovitish; bunda po'lat tarkibidagi yirik donachalar kichrayadi, po'latning mustahkamligi, plastikligi va qovushqoqligi oshadi.



Yaxshilash — termik ishlashning bir turi; 550—650° temperaturada toplash va bo'shatishdan iborat. Dinamik nagruzka ostida ishlaydigan mashina detallari uchun qo'llaniladi.

Chiniqtirish — metall va qotishmalarni xona temperaturasida ko'p vaqt saqlab (tabiiy chiniqtirish) yoki kizdirib (sun'iy chiniktirish) ularning strukturasi va xususiyatlarini o'zgartirish. Qattiqligi, mustahkamligi, magnit va boshqa xossalari yaxshilash. Metallarni kimyoviytermik ishlash — metallarni kimyoviy faol gaz, qattiq yoki suyuq muhitda yuqori temperaturada qizdirish va shu temperaturada bir oz sovitish. Bunda metall buyumlar sirtqi qatlamlarining kimyoviy tarkibi, strukturasi va xususiyati o'zgaradi. Bunga azotlash, xromlash, metallash va boshqalar kiradi.

Metallarni mexanik ishlash — qirindi olish yo'li bilan detallarga turli shakl va o'lcham berish. Metall kesish asboblari (keskich, parma, zenker, razvyortka, freza va boshqalar) va metall kesish stanoklari (tokarlik stanoklari, silliqlash stanogi, randalash stanogi va boshqalar) da bajariladi. Metallarni bosim bilan ishlash — metall zagotovka va buyumlarni qirindi olmay tayyorlash. Metallarning plastikligidan foydalanishga asoslangan. Asosiy turlari:

a) prokatlash — metallni aylanuvchi silindr (jo'va) lar orasidan o'tkazish (rayem,

b) cho'zish — metall zagotovkani o'z o'lchamidan kichik o'lchamli teshikdan tortib o'tkazish (rayem)

d) presslash — metallni berk silindr teshigidan siqib chiqarish (rayem, v); bolg'alash — metallarni bolg'a yoki press bilan ko'p marta va dambadam urib, zarur shakl va o'lchamga keltirish

e) list shtamplash — list, lenta yoki polosa metallni qalinligiga uncha xalal yetkazmay deformatsiyalash bunda metall puanson va matritsaning ish qismiga mos shaklni oladi.

f) Hajmiy shtamplash — metall (zagotovka) ning barcha o'lchamlarini o'zgartirib deformatsiyalash -bunda metall maxsus asbob (shtamp) bo'shlig'i shaklini oladi. Eritmalar metall sirtida uni korroziyadan saqlaydigan yupqa oksid parda hosil qiladi. Oksid parda metallni tashki muxit ta'siridan sakdaydi, uni ko'rkmglashtiradi. Metall hech qanday modda bilan reaksiyaga kirishmaydi. Temir, nikel, kobalt, xrom, marganets, alyuminiy va boshqa metallar "passivlanadi", ya'ni maxsus moddalar — oksidlovchilar (mas, xromatlar) bilan ishlanadi.

Metallarni mexanik ishlash — qirindi olish yo'li bilan detallarga turli shakl va o'lcham berish. Metall kesish asboblari (keskich, parma, zenker, rezvyortka, freza va boshqa) va metall kesish stanoklari (tokarlik stanoklari, silliqlash stanogi, randalash stanogi va boshqa) da bajariladi.

Metallarni bosim bilan ishlash — metall zagotovka va buyumlarni qirindi olmay tayyorlash. Metallarning plastikligidan foydalanishga asoslangan. Asosiy turlari:

1.prokatlash — metallni aylanuvchi silindr (jo'va)lar orasidan o'tkazish;



2.cho'zish — metall zagotovkami o'z o'lchamidan kichik o'lchamli teshikdan tortib o'tkazish

3. presslash—metallni berk silindr teshigidan siqib chiqarish

4.bolg'alash — metallarni bolg'a yoki press bilan ko'p marta va dam-badam urib, zarur shakl va o'lchamga keltirish

5.list shtamplash — list, lenta yoki polosa metallni qalinligiga uncha xalal etkazmay deformasiyalash bunda metall puanson va matrisanshg ish qismiga mos shaklni oladi.Hajmiy shtamplash — metall (zagotovka)ning barcha o'lchamlarini o'zgartirib deformasiyalash (48-rasm,e); bunda metall mahsus asbob (shtamp) bo'shlig'i shaklini oladi.

Toblash - mashinalarning ko'p detallari (po'lat vtulkalar, o'qlar, vallar, dumalash podshipniklari, asboblarning ishchi qismlari) toblast yo'lli bilan ishlanadi. Detallarni toblast uchun ma'lum darajadagi haroratda qizdiriladi. Agar metallning butun qalinligi yoki yo'g'onligini toblast zarur bo'lsa, uni birmuncha vaqt ana shu haroratda saqlanadi. So'ngra toblanadigan detalni qisqichlar yordamida ushlab va bug' qoplami hosil bo'lmasligi uchun aylanma harakatlantirib suyuqlik muhitiga asta-sekin botiriladi Keyin suyuqlikda: suvda, moyda, tuzli eritmada tez sovitiladi. Po'latni qattiqligini oshirish maqsadida toblanadi. Lekin toblast natijasida uning qayishqoqligi kamayadi va murtligi ortadi. Po'latni toblastdagi qizdirish xaroratining darjasini uning kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi. Kam uglerodli po'latni yuqoriroq darajada qizdiriladi. Toblashda metallni qanchalik tez sovitilsa, uning qattiqligi va murtligi shunchalik yuqori bo'ladi. Qizdirilgan metallni tez sovitish suvda amalga oshiriladi, yanada tezroq sovitish uchun esa osh tuzining mahsus vannaga solingan suvdagi eritmasidan foydalilaniladi. Qizdirilgan metall moyda suvdagiga nisbatan sekinroq soviydi. Detalni toblastda sovitish muhitida asta-sekin aylantiriladi va shu bilan uning butun sirti bir maromda sovishini ta'minlanadi. Mashinasozlikda detallarning sirtini toblast keng tarqalgan. Bunday toblast detal yoki asbobning sirtini qattiq qilish imkoniii beradi. Bu usulda detalning ichki qismidagi qayishqoqligi saqlanadi. Sirtini toblast qo'yidagicha amalga oshiriladi. Yuqori chastotali elektr toki yordamida detalning sirtini tez qizdiriladi. Uning ichki qismi esa qizimay qoladi yoki juda kam qiziydi, shuning uchun detalni sovitilganida metallning faqat ustki qatlami toblanadi. Yuqori sifatli toblastni amalga oshirishda mahsus moslama — induktordan foydalilaniladi.

Metallarning fizik xossalari. Davriy sistemada  $\frac{3}{4}$  qismidan ko'progi metallar egallagan bo'lib, ularning 12 tasi s-elementlar, 36 tasid-elementlar, 28 tasi f-elementlar va qolgani p-elementlardir. Metallarning o'ziga xos belgilari mavjud.

1.Har qanday metall o'ziga xos yaltiroqlikka ega, sababi, ular yorg'liknurini spektrning ko'zga ko'rinvchan sohasida qaytarish xususiyatiga ega.

2.Metallar issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi. Metallarning elektr o'tka-zuvchanligi harorat ortishi bilan pasayadi va qarshiligi esa aksinchaligi.

3.Ko'pchilik metallar odadagi sharoitda kristall holatda bo'ladi, ularning koordinasion soni katta qiymatga ega (8 va 12 ga teng).



4. Metallar cho'ziluvchan va yassilanuvchan bo'ladi.

5. Metallar elektromusbat elementlardir, ya'ni ularning oksidlari ko'pincha suv bilan birikib asoslar hosil qiladi.

Metallarning issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazishi – zaryadlangan zarrachalar metall kristallari orasida oson harakatlanishi hakida ma'lumot beradi. Nihoyat, metallarning elektr musbat elementlar jumlasiga kirishi – valent elektronlarning metall atomidan osongina chiqqib ketishini ko'rsatadi. Bu 5 xususiyat oddiy moddalarni "metall" yoki "metalmasligi" sinfiga ajratish uchun asos bo'la oladi.

### **ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Arshinov V.A., Alekseev G.A. Rezanie materialov i rejushiy instrument.- M., 1976.
- 2 Ivanova G.A. Osnovy teorii rezaniya, instrumenty stanki. -M., 1953.
- 3 Avagimov V.D. Mashinasozlik materiallarni kesib ishlash, stanoklar va asboblar. – Toshkent, 1976.
4. Nikiforov V.M. Metallar texnologiyasi va konstruktsion materiallar. Toshkent, 1976.